



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 1-aprel, chorshanba,
29 (24.209)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ishi
yo'qning
ko'rki
yo'q

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz



Parlamentlararo hamkorlik

Samarqandda "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi – 2026" Parlamentlararo hamkorlik forumi bo'lib o'tdi.

Forumda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston parlamentlari vakillari, Yevropa parlamenti a'zolari, ekspertlar, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, akademik doiralar hamda biznes vakillari ishtirok etdi.

Tadbinning ochilish marosimida Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev, viloyat hokimi Adiz Boboyev so'zga chiqib, mazkur forum Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi parlamentlararo muloqotni yangi bosqichga olib chiqishini ta'kidlab va forum ishiga muvaffaqiyat tiladi.

– Ushbu forumni o'tkazish tashabbusi o'tgan yil aprel oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammitida ilgari surilgan edi, – deydi S.Safoyev. – Parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan anjuman doirasida siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, transport-logistika, raqamli transformatsiya, ta'lim va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari muhokama qilinishi rejalashtirilgan. Aytish joizki, Yevropa Ittifoqi bilan muloqot va sheriklik bizning eng muhim ustuvor yo'nalishlarimizdan biri bo'lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy muloqot, aloqalar, yashil o'tish va texnologik modernizatsiya rivojlantirishga qiziqish bildirmoqda. Biz Yevropa Ittifoqining bugungi murakkab davrda Markaziy Osiyo davlatlari bilan yangi sheriklikka intilayotganini tushunamiz. Ishonchimiz komilki, ushbu forum ochiq muhokamalar, fikr almashish va Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi hamkorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qiladi.

– Bizning kun tartibimizda iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, savdo kvotalari va Yevropa bozoriga kirishni ko'paytirish, ko'p tomonlamalikni himoya qilish, ta'lim va tadqiqot sohasida almashinuv dasturlari uchun Yevropa imkoniyatlarini oshirish zarurati, energiya va raqamli aloqa, inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash va konstitutsiyaviy islohotlar o'rin olgan, – deydi Yevropa Parlamentining Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston bilan aloqalar bo'yicha delegatsiyasi raisi Giusti Princi. – Ko'plab dolzarb muammolarni faqat mintaqaviy darajada hal qilish mumkin. Shu bois ushbu forum g'oyasini ilgari surgan Prezident Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildiraman. Bundan bir yil oldin Samarqandda bo'lib o'tgan sammitdan so'ng parlamentlarimiz ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish tashabbusi bilan chiqqanidan xursandmiz. Yevroparlament sifatida biz hukumatlarimizdan farqli pozitsiyani egalladik. Masalan, Markaziy Osiyo fuqarolari uchun vizalar berishni osonlashtirish maqsadida Qozog'iston bilan dastlabki kelishuvga erishdik. Kelgusida mintaqadagi boshqa davlatlar bilan ham shunday muzokaralarni davom ettirish niyatidamiz.

Forum yakunida ishtirokchilar Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi parlamentlari o'rtasida doimiy muloqot mexanizmlarini yo'lga qo'yish va hamkorlikni tizimli ravishda davom ettirishga kelishib oldilar.

F.RO'ZIBOYEV.

Samarqand shahridagi Registon maydonida muddatli harbiy xizmatga otlangan yigitlarni kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.

Milliy gvardiya qo'shinlarida harbiy xizmatni o'tash uchun ketayotgan yoshlarni kuzatish uchun viloyat hokimligi mas'ullari, Markaziy harbiy okrug qo'mondonligi ofitserlari, Qurolli Kuchlar faxriylari, jamoatchilik tashkiloti vakillari hamda ota-onalar ishtirok etdi.

Tadbirda viloyat hokimi Adiz Boboyev Vatan himoyasi har bir insonning muqaddas va sharafli burchi ekanini ta'kidlab, chaqiriluvchilarga bu mas'uliyatli vazifani sharaf bilan o'tashda omad tiladi. Milliy armiyamiz salohiyatini oshirish va harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtaldi.

– Bu yilgi chaqiruv mavsumida viloyat bo'yicha 2600 nafar yoshlar muddatli harbiy xizmatga yuborilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirga qadar 1700 nafar chaqiriluvchi Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatga kuzatildi, – deydi viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i Burxon Quvvatov. – Chaqiriluvchilarni tanlovdan o'tkazish jarayoni yuqori saviyada tashkil etildi va ishtirokchilar orasidan bilimli, jismonan baquvvat, jasur o'g'lonlar saralab olindi. Tibbiy ko'riklar va psixologik suhbatlarga alohida e'tibor qaratilib, har bir yigitning sog'lig'i va ma'naviy-ruhiy holati chuqur o'rganildi. Chaqiriluvchilarni kuzatish marosimlari ko'tarinki ruhda tashkil etilmoqda.

Yigitlar harbiy xizmatga kuzatildi



Tadbirda yigitlarga "Askarga eslatma" kitobchalari tarqatilib, konsert dasturi namoyish etildi.

– Viloyat hokimligi axborot xizmati

► Mavsum

Fuqaro manfaati, inson qadri va xalq farovonligi har qanday davlat siyosatining eng muhim mezon bo'lib, ijtimoiy himoya tizimi aynan shu mezonni ifoda etib, jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ham insonparvar ijtimoiy himoya siyosati yuritilishi tufayli jamiyatda aholining turli qatlamlari o'rtasida muvozanat ta'minlanmoqda, ko'makka muhtoj kishilar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotir. Bu borada ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning joylardagi bo'limlari faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Mazkur tashkilot aholining ijtimoiy masalalarini eng quyi bo'g'in – mahalla darajasida individual yondashuv asosida ko'rib chiqish, muammolarini professional ijtimoiy xizmat va manzilli yordam ko'rsatish orqali samarali hal etishga xizmat qilmoqda.

Agentligimizning hududiy boshqarma va tuman (shahar) bo'limlari, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan 2024-yilda 119 ming nafar shaxs 151 ming xizmat bilan qamrab olingan bo'lsa, o'tgan yil 320 ming nafar muhtoj shaxs 540 ming ijtimoiy xizmat bilan qamrab olinib, qamrov 3,6 barobarga oshdi. Ijtimoiy masalalar bo'yicha murojaatlar qariyb ikki barobarga qisqardi. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga xususiy sektorni jalb etish xizmat sifati va qamrovini kengaytiradi, ota-onalar bandligi va daromadini tiklab, ijtimoiy qaramlikni kamaytiradi va iqtisodiy faollikni oshirdi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiylashuviga alohida e'tibor qaratilib, reabilitatsiya va protez mahsulotlarini vaucher tizimi orqali ta'minlash yo'lga qo'yildi. Natijada mahsulotlar turi 18 tadan 38 taga yetkazildi,

Ijtimoiy himoya:

"Faol hayotga qadam" tufayli 95 oila kambag'allikdan chiqarildi

ajratilgan subsidiya miqdori 2 barobardan 15 barobargacha oshirildi. O'tgan yil 8 turdagi yangi mahsulot (tibbiy tuvak, ortopedik matras, skuter, transfer, bolalar yurish moslamasi, bolalar uchun maxsus funksional aravacha, funksional krovat va bionik qo'l mahsulotlari) ta'minotga qo'shildi. Yil davomida nogironligi bo'lgan shaxslar 14,5 ming dona reabilitatsiya va protez mahsulotlari bilan ta'minlanib, qamrov 2023-yilga nisbatan 4 barobarga oshdi.

2025-yilda viloyat nogironlarni reabilitatsiya qilish markazida 2726 nafar, tuman (shahar) markaziy shifoxonalardagi reabilitatsiya bo'limlarida 7940 nafar nogironlarga xizmat ko'rsatildi. Qayta ko'rikdan o'tgan 3071 nafar nogironligi bo'lgan shaxs reabilitatsiya qilinib, qamrov 2024-yilga nisbatan 2,1 barobarga oshdi.

O'tgan yil davomida 11 mingdan ortiq nogironligi bo'lganlar bandligi ta'minlandi, 5 ming nafari adaptiv sportga jalb qilindi. 2025-yil 15-26-noyabr kunlari Tokioda bo'lib o'tgan XXV Surdlimpiya o'yinlarida viloyatimiz vakillari 1 ta oltin, 4 ta kumush va 4 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, Surdlimpiya tarixida eng yuqori natija qayd etdi. Para Osiyo o'yinlarida esa viloyat sportchilari 3 ta oltin, 5 ta kumush va 2 ta bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Nogironligi bo'lgan bolalar ijtimoiylashuvi bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar ham ijobiy natija bermogda. Jumladan, ularni parvarish qilayotgan 8,5 ming oila a'zolari nafaqa bilan ta'minlandi, 3930 nafari ta'limga jalb qilinib, avvalgi yilga nisbatan qamrov 10 barobarga oshdi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish qamrovi yuqori bo'lmoqda. Misol uchun, 2025-yilda 343 nafar imkoniyati cheklangan bola inklyuziv ta'limga jalb qilinib, qamrov oldingi yilga nisbatan uch barobarga oshdi. Ilk bor maktabgacha ta'limga inklyuziv guruhlar tashkil etilib, 105 nafar bola ta'lim bilan qamrab olindi.

2025-yil 1-iyuldan boshlab "Faol hayotga qadam" dasturi asosida 4541 nafar o'zgarar parvarishiga muhtojlarga ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatildi. Natijada ulardan 421 nafarining salomatligi tiklandi, ularni parvarishlayotgan 624 nafar oila a'zolari bandligi ta'minlandi va daromad oshganligi sababli 95 oila kambag'allik reestrindan chiqarildi.

Shuningdek, hozirgi vaqtda viloyatdagi 22 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan "Kunduzgi parvarish" xizmati yo'lga qo'yilib, ta'limga layoqat-siz, imkoniyati cheklangan 506 nafar nogiron bola parvarish qilinmoqda. Ularning 154 nafari "Kambag'allik reestri"dagi oilalar farzandlari bo'lib, shu paytgacha bola parvarishida bo'lgan oila a'zolarining 141 nafari bandligi ta'minlandi.


Joriy yildan kambag'allik va ijtimoiy himoya reestrlari birlashtirilib, yagona "Ijtimoiy reestr" joriy etildi. Oilalar ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ko'ra, davlat ta'minotidagi, kambag'al va kambag'allik chegarasidagi oilalar toifasiga ajratildi. Endi har bir oila uchun individual qo'llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqilib, yordam turlari aniq ehtiyojdan kelib chiqib belgilanmoqda. Reestrda kiritish, baholash mezonlari, nafaqa, tibbiy, ijtimoiy va moddiy yordam tayinlash

jarayonlari yagona elektron platforma orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, yil boshidan homiladorlik va tug'ish (dekret) nafaqalari, 2026-yil 1-iyuldan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik (kasallik varaqasi) bo'yicha to'lovlar ijtimoiy sug'urta jamg'armasi orqali moliyalashtirilishi yo'lga qo'yilishi, ishlovchi ayollar va norasmiy ishlayotgan fuqarolar uchun kafolati va barqaror to'lov tizimi yaratilishiga imkoniyat yaratdi. Bu orqali xususiy sektor zimmasidagi moliyaviy yuk kamayib, ish beruvchi xarajatlari qisqarmoqda va norasmiy mehnat munosabatlariga barham berilmoqda. Dastlabki hisob-kitoblarmizga ko'ra, bu yil 27,6 ming nafar xodim ijtimoiy sug'urta to'lovlari bilan qamrab olinadi.

Nogironlikni belgilashda ham yangicha tamoyillar asosida ish tutilmoqda. Endi baholash faqat tashxisga emas, balki shaxsning funksional cheklovlari va hayot faoliyatidagi imkoniyatlariga qarab amalga oshiriladi. Jarayon raqamlashtirilib, inson omili va ortiqcha qog'ozbozlik qisqartirilganligi esa ijobiy natija bermogda. Yil boshidan buyon qo'llanilayotgan yangi standart asosida nogironlik belgilash natijalari shuni ko'rsatayotiki, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda muddatsiz nogironlik belgilash 761 taga, II guruh nogironlik belgilash 998 taga, I guruh nogironlik belgilash 48 taga kamaydi.

Ijtimoiy himoya yo'nalishida belgilangan vazifalarga ko'ra, joriy yilda viloyatda 5,6 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligi ta'minlanadi, 6,8 ming nafar adaptiv sport turlariga jalb qilinadi, 14,1 ming nafar muhtojlar reabilitatsiya va protez mahsulotlari bilan ta'minlanadi, 36 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslar yangi standart asosida ko'rikdan o'tkaziladi.

Sherali YO'LDOSHEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i.



Pokizalik posbonlari uchun bayram tadbiri tashkil etildi



Viloyat hokimi qabulida tadbirkorlar muammosi muhokama qilindi



Asosiy fan olimpiadasining Respublika bosqichida viloyatimizdan 7 nafar o'quvchi faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi



1-apreldan nimalar o'zgaradi?

YANGI TARAQQIYOT MARRASIDA

O'tgan yil 27-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaror asosida viloyatimizdagi barcha tuman va shaharlarni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar hokimlar tomonidan xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasida taqdimot qilinib, tasdiqlandi. Ayni paytda barcha tuman va shaharlarda belgilangan vazifalar ijroga qaratilgan. Bunda har bir tuman (shahar) ixtisoslashuvi, geografik joylashuvi, tabiiy xomashyo va yer resurslari hamda infratuzilmaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qiyosiy ustunligi asosida "namunali va metodik" hududga aylantirilmoqda.

XO'SH, BU REJALAR NIMALARDAN IBORAT?

NARPAY TUMANI



Narpay tumanini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga ko'ra, 2026-yilda tumanda sanoat ishlab chiqarish hajmini 1 trillion 598 milliard so'mga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini 3 trillion 438 milliard so'mga, xizmatlar hajmini 1 trillion 811 milliard so'mga, qurilish ishlarini 286 milliard so'mga hamda chakana savdo aylanmasini 2 trillion 288 milliard so'mga yetkazish rejalashtirilgan. Qurilish dasturlari doirasida 13 ta obyektga 71,3 milliard so'mlik qurilish ishlari, jumladan, 2 ta maktab (670 o'rin), 2 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (240 o'rin) va 7 ta tibbiyot muassasasi (550 o'rin) barpo etish rejalashtirilgan. 41 kilometr avtomobil yo'lini ta'mirlash, 58 kilometr ichimlik suvi tarmog'ini tortish, 29 kilometr yangi elektr tarmoqlar tortish, 45 ta transformator punkti qurish, 443 kilometr elektr tarmoqlarini joriy va mukammal ta'mirlash hamda 154 ta transformatorni ta'mirlash ko'zda tutilgan.

"Yashirin iqtisodiyotning" oldini olish maqsadida joriy yilda 4921 ta yuridik va jismoniy shaxsdan 90,3 milliard so'm qo'shimcha manba aniqlanadi. Yil yakunida kambag'allik darajasini 4 foizdan 2,2 foizga, ishsizlik darajasini 4,8 foizdan 3,3 foizga qisqartirish, kambag'al oilalarni barqaror bandlik xizmatlari bilan qamrab olish va daromad keltiradigan faoliyat turlariga yo'naltirish rejalashtirilgan. Yil davomida 1,8 ming oila va ularning 7,9 ming nafar oila a'zosi kambag'allikdan chiqariladi, besh mingdan ortiq fuqaro doimiy ishga joylashtiriladi, qariyb 2,8 ta ish o'rnini soyardan chiqariladi.

Yil davomida kichik va o'rta biznes subyektlariga 360 milliard so'mlik, "Mahalla loyihasi" dasturi doirasida 45,7 milliard so'mlik, "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi doirasida 23,7 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, "Biznesga birinchi qadam" dasturi doirasida 14,3 milliard so'mlik imtiyozli kredit ajratiladi. 1,8 mingdan ortiq fuqaro vaqtincha mehnat qilish uchun xorijga ishga yuboriladi, 337 nafari kasbga va chet tillariga o'qitiladi.

Tumanning Istiqlol, Chaykal, Sohibkor va Ko'k-ota mahallalarida drayver loyihalari amalga oshiriladi, Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla dasturiga kiritilgan Tortuvi va Xo'jaqo'rg'on mahallalarida loyihalarni amalga oshirish, joylarda 290 ta hunarmandchilik tashkil qilish rejalashtirilgan. Og'ir toifadagi Umid, Olti o'g'il, Ipak yo'li, Totkent, Xo'jakarzon va Muqimiy mahallalarida aholi yashash sharoiti yaxshilani

lanadi, tadbirkorlarga qulay sharoit yaratiladi.

Yil davomida 155 million dollarlik (shundan, 88 million dollar mazzilli loyihalar hamda 67 million dollar istiqbolli loyihalar hisobiga) xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilinadi. Tepa mahallasida joylashgan "Urgut" EIZ hududida qiymati 7 million dollarlik temir beton ishlab chiqarish loyihasini boshlash rejalashtirilgan.

Tumanning investitsiya imkoniyatlari hamda salohiyatidan kelib chiqib sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha hududga mos 20 ta yangi istiqbolli loyiha takliflari ishlab chiqiladi, tumandagi 8 ta yirik loyihaning to'liq quvvatda ishlashi ta'minlanadi.

Umuman, tumanda ikkinchi chorakdan boshlab yil yakunigacha hududiy investitsiya dasturlari doirasida 40 ta loyihani ishga tushirish va 626 ta ish o'rnini yaratish maqsad qilinadi.

Sanoat yo'nalishida qiymati 19,1 million dollar bo'lgan 19 ta, xizmatlar ko'rsatishda qiymati 46 million dollarlik 24 ta, qishloq xo'jaligida qiymati 2,5 million dollarlik 4 ta loyiha amalga oshiriladi.

Qurilish sohasida bu yil 127 xonadonli 3 ta uy-

joy qurilishi, 3 ta ko'p qavatli uy-joyini ta'mirlash, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 1 million tupdan ortiq daraxt va buta ko'chatlari ekilishi rejalashtirilgan. 2 ta umumta'lim maktabi, 2 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 6 ta sog'liqni saqlash obyekti qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib boriladi. Xo'jaqo'rg'on va Tortuvi mahallalarida 2,8 kilometr ariq betonlashtiriladi, 1 ta svetofor quriladi, 4,2 kilometr piyodalar yo'lagi barpo etiladi, 4 kilometr yo'l ta'mirlanadi, 35-maktab uchun sport zal qurish, 5 dona transformator, 340 dona tayanch ustun o'rnatish, 13 kilometr elektr tarmog'ini tortish ham bu yilgi rejalar sirasiga kiritilgan. Charxin mahallasida 1 ta transformator o'rnatiladi, 0,6 kilometr elektr tarmoq tortiladi, 0,3 kilometr piyodalar yo'lagi quriladi, 12 ta tungi yoritish chirog'i o'rnatiladi.

Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish loyihasi doirasida 1 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 4 ta maktab, 1 ta oilaviy poliklinika binosi rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, 41 kilometr ichki yo'lni ta'mirlash, 20 ta transformator o'rnatish, 60 kilometr elektr, 58 kilometr ichimlik suvi tarmog'ini tortish, 4 kilometr piyodalar yo'lagi qurish rejalashtirilgan.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida 11 kilometr ichki yo'l ta'mirlanadi. Tegishli dasturlar va ichki moliyaviy imkoniyatlar hisobidan 5 ta inshoot hamda 100 kilometr ichimlik suv tarmog'i quriladi, ichimlik suvi va oqova suv inshootlariga 11 dona elektr tejamkor nasoslar o'rnatiladi. Bu ishlar natijasida aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 75 foizga, oqova bilan ta'minlash darajasi 15,2 foizga yetkaziladi.

Tumanda zamonaviy ilg'or agrotexnologiyalarni qo'llash orqali 3021 gektar maydonga "Shinjon" usulida chigit ekiladi. Yil davomida 3,6 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etiladi.

2026-yil hosili uchun asosiy maydonlarga 320 gektar kartoshka, ertaki ekinlardan bo'shaydigan takroriy maydonlarga 30 gektar poliz ekinlari ekiladi. 6390 gektar boshqoqli don ekinlaridan gektariga 90-95 sentner hosildorlikka erishish kutilmoqda. Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari, jumladan, g'alladan va ertaki ekinlardan bo'shaydigan takroriy maydonlardan hamda dehqon xo'jaliklaridan "Bir mahalla-bir mahsulot" tamoyili asosida 87,8 ming tonna sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi.

Tumanda go'sht (tirik vaznda) ishlab chiqarishni 9 ming tonnaga, sut ishlab chiqarishni 98 ming tonnaga (103 foiz), parrandalar bosh sonini 750 ming boshga (109,7 foiz), tuxum ishlab chiqarishni 42 million donaga (100 foiz) ga yetkazish rejalashtirilgan. Qoramolchilikni rivojlantirish yo'nalishida 7,3 milliard so'mlik, parrandachilikda 3 milliard so'mlik loyihalar amalga oshiriladi.

Tibbiyot yo'nalishida 55 ming 466 nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi yurak qon-tomir va qandli diabet kasalligini erta aniqlash maqsadida ommaviy skriningdan, 10 ming 617 nafar 35-55 yoshdagi ayollar bachadon bo'yni skriningdan o'tkaziladi. 2-10 yoshli 35 ming 448 nafar bolalar gelmintoz, 3-18 yoshli 51 ming 752 nafar bolalar onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash maqsadida ommaviy va selektiv skriningdan o'tkaziladi.

Yil yakunigacha kompyuter dasturlash sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 3 taga ko'payadi, IT Park rezidentlari xizmatlari hajmini 60,5 milliard so'mga yetkazish rejalashtirilgan.

Bu loyihalar va rejalarining amalga oshirilishi tumanda aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ishsiz fuqarolarning doimiy ish o'rniga ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarning ishga tushirilishi va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim zamin yaratadi.

Magistratura qabulida imtihon bo'lmaydi

Ta'lim tizimidagi islohotlar yildan-yilga takomillashib boryapti. Hamma ham magistraturaga qabul jarayoni qanday bo'lishini, qanday tartibda hujjat topshirishni bilmaydi. Ushbu savollarga javob topish maqsadida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining magistratura bo'limi boshlig'i Elmurod Muxtorov bilan suhbatlashdik.

- Magistraturaga oliy ta'limning bakalavr bosqichini tamomlaganlar qabul qilinadi. Talabgorlar magistraturaga qabul qilinishi uchun hujjat topshiradi. Tizimga diplom, diplom ilovalari hamda chet tilini bilish sertifikatini yuklaydi. Talabgorlarning bakalavr davrida olgan baholari va chet tilini bilish sertifikatiga qarab o'qishga qabul qilinadi. Ulardan imtihon olinmaydi, faqat belgilangan kvota bo'yicha yuqori ball to'plaganlar tanlab olinadi.

Hujjat topshirish jarayonida talabgorlar yo'nalishiga mos magistratura yo'nalishini tanlashi kerak. Agar u tanlagan yo'nalish bakalavr diplomidagi yo'nalishga to'g'ri kelmasa, unga boshqa mos yo'nalish tanlash bo'yicha tushuntirish beriladi.

Universitetimizda 28 ta magistratura yo'nalishi bo'lib, iqtisod, buxgalteriya yo'nalishlariga chet tilini bilish bo'yicha B2 darajali milliy yoki xalqaro sertifikat, qolgan mutaxassisliklarga B1 sertifikat talab qilinadi. Shuningdek, ko'z, quloq yoki nutqida nuqsoni bo'lganlar nogironlik ma'lumotnomasi bilan ham magistraturaga qabul qilinadi.

- Magistraturaga qabul qilishda yosh chegaralanganmi?

- Magistratura qabulida yosh chegaralanmagan, faqat bakalavr diplom bo'lishi kerak.

- Magistratura xotin-qizlarga qanday imtiyozlar berilgan?

- Prezidentimizning 2022-yil 15-av-



gustda "Davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lab berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, magistraturaga kontrakt asosida o'qishga kirgan xotin-qizlarning kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab beriladi. Buning uchun dastlab talaba rektor nomiga ariza yozadi. So'ngra kontrakt.edu.uz tizimidan o'tadi. Bugun universitetda birinchi va ikkinchi kursda 8 nafardan jami 16 nafar xotin-qiz ta'lim olmoqda. Ularning kontrakt pullari to'liq davlat tomonidan to'lab berilyapti.

- Magistraturaga ajratilayotgan kvotalar to'lyaptimi?

- Ikkinchi kurs magistrantlar

bo'yicha kvotalar to'lmagan. Bunga sabab chet tilini bilish sertifikatini olish ayrim talabalarda qiyinchilik tug'diryapti. Birinchi kurslarimizga esa 28 ta mutaxassislikdan jami 96 ta kvota berilgan. Ushbu mutaxassisliklarga 78 nafar talabgor hujjat topshirgan va o'qishga qabul qilingan. O'zimizda aynan mazkur sohada bitiruvchi bo'lmagan uchun dorivor o'simliklar yo'nalishiga hech kim hujjat topshirmagan. Shu yil bakalavriatda dorivor o'simliklar yo'nalishining birinchi bitiruvchilari bor. Birinchi kurs magistrantlarimizga ajratilgan kvotalar to'liq to'lmagan bo'lsa-da, qolgan barcha yo'nalishlarga hujjatlar topshirilgan. Ayni paytda universitetda 118 nafar magistr o'qiyapti.

- Magistrantlarga stipendiya beriladimi?

- Davlat granti bilan o'qishga kirgan magistrantlarga stipendiya beriladi. Shuningdek, to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan talaba barcha fanlardan a'lo bahoga o'qisa va oraliq baholari "5" bo'lsa, unga baza-viy stipendiyaning 20 foizi miqdorida stipendiya to'lanadi. Bundan tashqari, to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirgan talaba birinchi kursda a'lo baholarga o'qisa, ikkinchi kursda unga stipendiya beriladi. Aksincha, davlat granti asosida o'qishga kirgan talabning baholari past bo'lsa, ikkinchi kursdan unga stipendiya berilmaydi.

- Magistratura qabulida qanday muammolar mavjud?

- Qabul jarayonlarida hech qanday muammo bo'lmaydi. Tizim shaffof tarzda tashkil etilgan bo'lib, unda biz faqat hujjat topshirganlarning soni va kvotani ko'rib turamiz. Talabgorlarning ism-familiyasi bizga ko'rilmaydi. Hujjat topshirganlarni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi talabalikka tanlab beradi. Bu jarayonda ishtirokimiz bo'lmaydi.

- Magistrantlar ham o'qib, ham ishlashi mumkinmi?

- Qonunda magistrantlarning ishlashiga cheklov berilmagan, faqat darsdan keyin ishlashi mumkin.

Xurshida ERNAZAROVA

suhbatlashdi.

Viloyatda "Eng og'ir ahvoldagi 101 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash dasturi" doirasida Jomboy, Bulung'ur, Kattaqo'rg'on va Samarqand tumanlarida amalga oshirilayotgan ishlar jamoatchilik monitoringi tartibida o'rganildi.

Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi bo'yicha 303 milliard so'm mablag' ajratilgan bo'lib, hozirgacha 93 ta mahallaning aholi tomorasini sug'orish tizimini yaxshilash ishlariga 119,4 milliard so'm mablag' sarflangan. Shuningdek, 88 ta mahallaning elektr ta'minoti yaxshilanib, 13 ming dona temir-beton ustunlar o'rnatilgan. Muhtoj mahallalarga 221 ta transformator joylashtirilib, 615 kilometr elektr tarmog'i tortilgan.

“Eng og'ir ahvoldagi 101 ta mahalla” dasturi joylarda qanday bajarilmoqda?

Biroq joylarda o'tkazilgan o'rganishlar ayrim ma'lumotlar bilan amaldagi holat o'rtasida tafovut borligini ko'rsatdi. Jumladan, Jomboy tumani Saroy mahallasida tuman hokimligi va mahalla o'rtasida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan uch tomonlama shartnoma belgilangan tartibda tuzilmagan. Uchta yangi transformator o'rnatish belgilangan bo'lsa-da, 1 ta yangisi o'rnatilib, 2 ta eski transformator ta'mirlangan.

Sug'orish tizimini yaxshilash maqsadida 3,2 kilometr uzunlikdagi ariq betonlashtirilgan. Biroq ayrim hududlarda beton lotoklarning yorilib, suv sizib chiqayotgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ariqlar yoqalarida daraxtlarning kesib tashlanganligi aholining e'tiroziga sabab bo'lmog'ida.

Shuningdek, Shirinkent mahallasida 1,8 kilometr ariq betonlashtirilgan bo'lib, ish jarayonida o'nlab daraxtlar kesib tashlangan. Bu mahallada ham 3 ta yangi transformator o'rniga 1 tasi yangilanib, 2 ta eskisi ta'mirlab qo'yilgan.

Bulung'ur tumanidagi Gulobod mahallasida 2 ta yangi transformator o'rnatilib, 5 kilometr elektr energiyasi tarmog'i tortilgan. O'roqli mahallasida esa 2 ta transformator o'rnatilgan, biroq rejalashtirilgan 3 kilometr o'rniga 2,3 kilometr elektr tarmog'i tortilgan. 30 ta simyog'och

va 700 metr tarmoq tortish ishlari bajarilmagan.

Samarqand tumanidagi Yangijoy mahallasida aholi tomorasini sug'orishda foydalanish uchun 2 ta suv nasosi va 7 ta yangi transformator o'rnatilgan. Shuningdek, 1,2 kilometr ariq betonlashtirilib, 5,5 kilometr elektr tarmog'i tortilgan. Ammo jamoatchilik e'tiroziga ko'ra, yangi o'rnatilgan 163 ta simyog'och orqali tortilgan elektr tarmoqlari kabellari belgilangan texnik talablar asosida mustahkamlanmagan.

Mazkur tumanlarda o'tkazilgan jamoatchilik o'rganishlari ayrim hududlarda sifat, shaffoflik va hisobot berish masalalarida kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Tanlab olingan hududlarda mahalla, tuman hokimligi va mas'ul tashkilotlar o'rtasida uch tomonlama shartnomalarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish hamda ijrosini tizimli nazoratga olish lozimligi qayd etildi. Ayniqsa, ariq va zovurlarni betonlashtirishda daraxtlarni saqlab qolish bo'yicha qat'iy tartib joriy etish lozim. Har bir loyihaning boshlanishi va yakunida mahalla aholisi uchun ochiq hisobot berish amaliyotini yo'lga qo'yish hamda noto'g'ri hisobotlarga chek qo'yish zarur.

Nodir QUDRATOV,
“Yuksalish” harakati viloyat bo'linmasi bosh mutaxassisi.

Prezidentimizning 2025-yil 28-martdagi "Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish samaradorligini oshirish va mahsulot yetishtirish hajmini ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida elektron onlayn auksionlarni o'tkazish bo'yicha yangi tartib-taomillar belgilab berildi. Jumladan, elektron onlayn auksion savdosini o'tkazish to'g'risidagi xabarnomani e'lon qilish muddati 15 kundan 5 kunga, takroriy savdolarida 5 kundan 1 kunga qisqartirildi. Takroriy savdolarida 1 nafar ishtirokchi bo'lganda ham savdolar o'tgan, deb hisoblanadi. Takroriy savdolarida boshlang'ich narxi 10 foizdan bosqichma-bosqich 20 foizgacha pasaytiriladi.

"E-auksion" savdolarida yangi tartib kuchga kirgan

2025-yil 1-apreldan barcha hududlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan barcha turdagi yerlarni ijaraga berish bo'yicha o'tkaziladigan elektron onlayn auksion savdolarida yer uchastkasiga ijara huquqini olish uchun to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash va to'lov to'liq to'langanda chegirma berish tartibi bekor qilindi hamda to'lovlar 15 ish kunida

to'liq to'lanishi belgilandi. Agar dehqon xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini olish bo'yicha 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 15-aprelga qadar o'tkazilgan ochiq elektron tanlovlarda g'olib bo'lgan "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar"ga kiritilgan fuqarolar va mehnat migrantlari bo'lsa, ijara muddatiga teng taqsimlanadigan qo'shim-

cha to'lovlar miqdori ushbu yer uchastkasi normativ qiymatining bir barobariga va boshqa shaxslar uchun ushbu yer uchastkasi normativ qiymatining to'rt barobariga teng miqdorda to'lash belgilandi.

Qahramon EShONQULOV,
"Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish" AJ viloyat hududiy vakili.

Viloyat qon quyish markazi tashabbusi bilan Samarqand davlat tibbiyot universitetida «Men donorman!» aksiyasi bo'lib o'tdi.

Donorlar safi kengaymoqda

Aksiyada universitetdagi bir qator fakultetning xodim va talabalari ishtirok etdi.

Muntazam tashkil etib kelinayotgan bunday aksiyalarda donorlar safi kun sayin kengayib bormoqda. Bu yurtdoshlarimizning beg'araz donorlik harakatini rivojlantirish borasida olib borayotgan sa'y harakatlari natijasidir.

Oliyog'unda o'tkazilgan aksiyada 20 nafardan ortiq xodim va talaba qon topshirib, bemorlarga yordam berish va o'zgarlar hayotini saqlab qolishda ibrat ko'rsatdi.

Zarifa QAYUMOVA,
viloyat qon quyish markazi shifokori.



Narpaylik o'quvchi 4 ta milliy sertifikatni qo'lga kiritdi

Narpay tumanidagi 23-maktabning 11-sinf o'quvchisi Umida Fozilova filologiya – ona tili yo'nalishi bo'yicha 189 ballik natijani qo'lga kiritdi. U endi o'z yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasasi talabasi bo'lish imkoniyatiga ega.

U ona tili va adabiyot fanidan 72,07 ball bilan A+ darajali milliy sertifikatga, shuningdek, ingliz tili, matematika va tarix fanlaridan ham milliy sertifikatlariga ega bo'ldi.

Mushtariy AHMADOVA.

...1991-yil dekabr oyi. Deyarli barcha sohalarda sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida ta'minot uzilgan. Hatto kundalik ehtiyot uchun aholi jon boshiga 200 gramm yog', 3 kilogramdan un berilgan paytlar.



Mixli akani o'zi ishlayotgan viloyat "O'zselkoxtexnika" ta'minot bazasi direktori Stanislav Latipov yo'qladi. Direktorning xonasida viloyat hokimligi mas'ullari Shodiqul Nishonov, Anvar Mirzaev ham bor.

- Bilasiz, bugungi kunda respublikamizda g'alla yetishtirishni keskin oshirishga e'tibor qaratilayotgan, - dedi viloyat hokimining o'rinbosari Shodiqul Nishonov. - Shuning uchun o'rim-yig'imga hozirdan tayyorgarlik ko'rilmasa, pand yeb qolamiz. Chunki mavjud kombaynlar eski, kam. Buning ustiga, borlariga ham ehtiyot qismlar yo'q. Belarus, Ukraina, Rossiya va boshqa hududlardan kombayn, ehtiyot qismlar yetkazib berish bo'yicha tuzilgan barcha shartnomalar oldindan to'lov bo'lmaganligi sababli barbot bo'ldi. Shu masalada tajribangiz ayni og'ir kunlarda asqotadi. Ertaga xizmat safariga otlansangiz. Bizga ko'proq kombayn va ehtiyot qismlar kerak. Ishlab chiqarish korxonalarini bilan kelishib, shu ishlarni amalga oshirishda yordam qiling.

Mixli aka rahbarlarning bu iltimosini rad qilmadi. Ko'nglida esa ming bir xayol. Ayni qish chillasi. Barcha hududlarda boshboshdoqlik avj olgan. Bir respublika ikkinchisining iltimosini inobatga oladigan zamon emas. Shunday bo'lsa-da "omon-omon" zamonda o'sha hududlarga xizmat safari chog'ida orttirilgan o'rtoqlarini qoralab, yo'lga chiqishga rozi bo'ldi. "Kamaz" mashinasi tirkamasi tikuv fabrikasidan olingan matras (ko'rpacha) va choyshablarni yukladi. Ehtiyot shartdan yuklar orasiga 30-40 tacha qovun, tandirkabob ortib yo'lga tushdi.

Oqto'be va Ural oblastlari hududida harakatlanayotgan paytda haydovchi Mixli akaga gap soladi.

- Biror joydan yoqilg'i g'amlab olishimiz kerak. Bu qahratonda ko'chada qolsak, muzlaymiz. Yarim tun payti mashina chekka bir yoqilg'i shoxobchasiga qayrildi. To'xtashlari bilan soqol-mo'ylovi o'sgan 3-4 yigit ularning yoniga keldi. "Mehmon"lardan biri cho'ntagidan to'pponcha chiqarib, Mixli akaning ko'kragiga tiradi.

- Bu bizning hudud, "dolya" mizni bermasdan hech kim o'tmagan, - dedi barzangi.

Mixli aka murosas qilishga harakat qilib ko'rdi. Mashina davlatniki, yuklarni qaysidir zavod ishchilari uchun olib ketayotganini tushuntirdi.

- Bu meni qiziqitirmaydi. Yo aytganimizga ko'nasan, yo mashina shu yerda yuki bilan yonib ketadi.

Yo'lt'o'sarlardan ming bir iltimos-u qiyinchiliklar bilan qutulishdi. "Krasnoyarsk kombayn zavodi"ga yetib borishdi. Ko'p yillik tanishi - zavod direktori yelka qisib dedi:

- Ishchilar ikki smenada shartnomadagi ehtiyot qismlarni tayyorlash bilan band. Kechki smenadan oz-ozdan ehtiyot qism to'plashimiz mumkin. Ammo buning uchun ikki oycha vaqt ketadi.

- Kutamiz. Faqat aytilgan miqdorda ehtiyot qismlar to'plansa bas, - dedi Mixli aka qat'iy.

Yonimizdagi odamlar

MATONATLI INSON

Shundan so'ng "o'zbekistonliklar"ga deya bir maydoncha ajratishdi. Shu yerda 45 kun yashagan Mixli aka tunlari zavod ishchilari huzurida bo'ldi. Asta-sekin oltita vagonga joylanadigan ehtiyot qismlarni yig'di.

- Hisob-fakturalarni jo'natganman. Ehtiyot qismlar yo'lda, - dedi u o'zining ishxonasidagi-larga qo'ng'iroq qilib.

- Hali to'lov qilinmadi. Konvertatsiya yo'q. Qaerdan ehtiyot qism keladi? - ajablanishdi u tomondagilar. Ammo aytilgan yuk yetib kelganida ko'pchilik hayron qoldi.

Barnaulda xizmat safari, ayniqsa, qiyin kechdi. Texnikalar uchun kerakli ehtiyot qismlarni olish uchun oldindan to'lov talab qilishdi. Mixli aka zavod rahbarlarini ko'ndirish uchun O'zbekistondan olib borgan qovun, tandirkaboblar bilan mehmon qildi. Faqat ehtiyot qismlar tayyor bo'lguncha naqd ikki oy kutishiga to'g'ri keldi. Mehmonxona xarajatlariga ham puli qolmagach, zavod yaqinidagi besh qavatli uyning yerto'lasida ming bir azob bilan kunlarni tunga uladi...

Birinchi xizmat safaridan so'ng u kishi Stavropol, Barnaul, Kiyev, Rubsovskiy, Nazarova, Belaya serkov, Minsk, Kursk zavodlaridan ham paxta, g'alla, chorvachilik uchun ishlatiladigan texnika va ehtiyot qismlarni, hech qanday to'lov-siz 84 dona yangi kombaynlarni viloyatga yetkazib keldi.

Past Darg'om tumani hokimi N.Eshonqulov hududagi viloyat ta'minoti bazasiga kelib, qator yangi kombaynlarga ko'zi tushib, chehrasiga quvonch yo'yildi. Axir mavsumoldi barcha o'rim texnikalari yaroqsizligidan chora izlayotgandi-da. Shu sabab idoradan chiqqan Mixli akani quchib, minnatdorlik bildirdi...

Ha, o'sha og'ir damlarda deyarli har yili 3-4 martagacha boshqa respublikalarga 40-50 kunlab xizmat safariga borgan Mixli Boyg'oziyev hech qachon quruq qaytmagan. Bu uning ko'p yillik tajribasi mevasi edi.

Hikoyamiz qahramoni Mixli aka 1951-yil 3-aprelda tug'ilgan. Ta'lim dargohida tahsil olgach, 47 yil davomida Ulug'bek nomidagi viloyat ta'minot korxonasida turli vazifalarda mehnat qildi. 2008-2016-yillarda "Klass Ulug'bek Lochin" MTPni boshqardi. Ko'p yillik xizmatlari uchun 2018-yilda "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mixli Boyg'oziyev nafaqaga chiqqach, o'zi yashayotgan Past Darg'om tumanidagi Balxiyon mahalla raisining keksalari va faxriylar ishlari bo'yicha masahatchisi bo'lib ish boshladi. Mana, 11 yildirki, otaxon mahalla ichki yo'llarini ta'mirlash, shag'al yotqizish, asfalt qilish, yog'och elektr ustunlari o'rni-ga temir-beton ustunlari o'rnatish, qabriston hududini devor bilan o'rash kabi obodonlashtirish ishlarida bosh-qosh bo'ldi. Bu xizmatlari natijasida Mixli aka tumanda o'tkazilgan "Yoshlar murabbiysi" ko'rik-tanlovida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Mixli aka turmush o'rtog'i Nasiba Qalandarova bilan 6 nafar farzandni tarbiyaladi. Otaxon hozirda 18 nafar nabira, 22 nafar chevara qurshovida keksalik gashtini surmoqda.

Baxtiyor MAMAYUSUPOV,
mehnat faxriysi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Abdurxonov Boxodir Xazratkulovichga (2025-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Samarov Shahriddin Mahammadovichga (2025-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Azizov Abdullaga (2017-yil 18-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun me-

ros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Ibragimova Nodira Oblokulovnaga (2022-yil 1-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Maxamov Utkir Ochilovichga (2025-yil 21-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Rustamov Alisher Ubaydullayevichga (2021-yil 15-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Jukova Valentina Vasilevna (2022-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Raximov Maxkamga (2014-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun

meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Kiranova Muxabbat Nuriddinovnaga (2025-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Tursunov Usmon Abdiyevichga (2025-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Amanov Rustam Mardanovichga (2025-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.


Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Sattarov Fayzulla Rayimkulovichga (2022-yil 21-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.

BEKOR QILINADI
Samarqand tumanidagi "HUMO VIZA OFFICE" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312753211) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sulton Xovand Beka maqbarasi XV asr temuriylar davri me'morchiligining noyob namunalardan biri bo'lib, Samarqand shahrining sharqiy chekka qismida, Registon maydonidan taxminan ikki kilometr uzoqlikda bunyod etilgan. Manbalarda bu inshoot uzoq vaqt "Ishratxona", keyingi tadqiqotlarda "Ashratxona" nomi bilan qayd etilgan bo'lsa-da, vaqf hujjatlari hamda tarixiy ma'lumotlar asosida uni Sulton Xovand Beka maqbarasi deb atash ilmiy jihatdan xulosalanmoqda.



Mazkur maqbara joylashgan hudud Amir Temur davrida muhim landshaft va saroy-bog' tizimining

tarkibiy qismi bo'lgan. Bu yerda bir vaqtlar taxminan 1,5 gektar maydonni egallagan Firuza bog'i mavjud bo'lib, shu hudud

orqali "Darvozai Firuza"dan "Bog'i Dilkusho" va "Bog'i Bo'ldi" tomonga olib boruvchi serqatnov yo'l o'tgan. Obidaning shahar tuzilmasidagi o'rni ham uning tasodifiy emas, balki oldindan puxta o'ylangan memorial-me'moriy majmuva sifatida yaratilganini ko'rsatadi. XIX asr o'rtalarida Rossiyaning Buxorodagi elchixonasi a'zosi, topograf I.Yakovlev Samarqand shahri rejasini tuzganida, shahar darvozasining janubi-sharqidagi ushbu binoni yirik an'anaviy belgi bilan ko'rsatib, "Amir Temur binosi" deb qayd etgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, maqbara temuriy hukmdorlardan Abu Said Mirzoning rafiqasi Habiba Sulton begim tomonidan uning qizi Sulton Xovand Beka og'a uchun bunyod ettirilgan. Bu hijriy 868-yil, ya'ni milodiy 1464-yilga oid vaqf hujjati bilan bog'liq. Qurilish ishlari 3-4 yil davom etgan va 1463-yil may oyida yakunlangan. Yuqoridagi vaqf hujjatiga ko'ra, maqbara Firuza bog'ining g'arbiy burchagida, Xo'ja Abdu Darun maqbarasi yonida, Amir Jaloliddin Suxrobnig qizi Habiba Sulton Begim tomonidan qurdirilgan. Ushbu hujjatda yodgorlik bevosita "Sulton Xovand Beka maqbarasi" deb ataladi. Demak, obidaning asl tarixiy mansubligi va nomlanishi aynan shu shaxs bilan bog'liq.

Maqbara keyinchalik faqat bir shaxs dafn etilgan yodgorlik bo'lib qolmay, temuriylar sulolasi ayollari va bolalari uchun oilaviy dahma vazifasini ham bajargan. Arxeologik ma'lumotlar yeroosti qismida ko'plab qabrlar mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yeroosti xilxonasida 23 ta qabr qayd etilgan, bu obidaning oddiy maqbara emas, balki sulolaviy yoki oilaviy dafn majmuasi bo'lganini ko'rsatadi. Aynan shu jihat maqbarani temuriylar dafn marosimi an'analari va temuriylar me'morchiligi tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga ega yodgorlikka aylantiradi.

Me'moriy jihatdan Sulton Xovand Beka maqbarasi murakkab va o'ziga xos kompozitsiyaga ega. U ikki qavatli, baland peshtoqli, burchaklarida minorasimon unsurlar mavjud, ichki va tashqi gumbazli monumental inshootdir. Maqbara Amir Temur maqbarasi kabi xilxona va ziyoratxona qismlaridan tarkib topgan, biroq uning eng muhim va noyob jihati, gumbaz ostida ikkinchi qavat ham joylashgan. Bu kabi yechim temuriylar davri va undan

"Ishratxona" yoki "Ashratxona" emas, Sulton Xovand Beka MAQBARASI

Samarqand shahridagi ushbu obida haqida nimalarni bilasiz?

keyingi ko'plab maqbaralarda uchramaydi. Shuning uchun ham ushbu obida nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo me'morchiligida alohida o'rin tutadi. Maqbaraning birinchi qavatida yon tomonlarda qo'shimcha xonalar, kirish peshtoqingning ikki yonida bittadan xona, janubi-g'arbiy tomondagi xonadan esa pastga - xilxonaga tushadigan zinapoya joylashgan. Har ikki yon tomondagi xonalar orqali ikkinchi qavatga ko'tariladigan zinalar mavjud bo'lib, umumiy zinapoyalar soni to'rttani tashkil etadi.

Maqbaraning yeroosti qismi, ya'ni xilxonasi katta ilmiy qiymatga ega. U markaziy xona ostida joylashgan bo'lib, unga shimoli-sharqiy burchak orqali tushilgan. Bu yerda burama zinapoya olib borgan, shuningdek, marhumni tushirish uchun xizmat qilgan alohida yo'lak ham bo'lgan. Rejada u deyarli to'g'ri sakkizburchak shakliga ega bo'lib, keng, nisbatan yaxshi yoritilgan va shamollatish uchun mo'ljallangan uchta tuynukka ega edi. Xilxona devorlari va gumbazsimon yopmasi ganch hamda alebastr suvoq bilan ishlangan, ayrim joylarda marmar bordyur va koshinli panellar izlari aniqlangan. Bu hatto yeroosti dafn xonasining ham nihoyatda hashamatli me'moriy-badiiy yechim asosida bezatilganini ko'rsatadi. Xilxona Amir Temur maqbarasidagidek 8-9 metr diametrlilik, sakkiz burchakli shaklda qurilgan bo'lib, tom qismi nisbatan yaxshi saqlangan. Xilxonadagi qabrlar saqlanmagan, ayrimlari keyingi davrlarda tushgan tuproq uyumlari ostida qolib ketgan bo'lishi mumkin.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xilxonada joylashgan qabrlar turli yoshdagi marhumlarga tegishli bo'lgan. Qabrlarning ayrimlari voyaga yetgan shaxslar uchun, boshqalari esa chaqaloq va yosh bolalar uchun mo'ljallangan. Ular asosan xom va pishiq g'ishtdan terilib, ganch bilan suvalgan. Ba'zi qabrlar marmar plitalar bilan yopilgan, ayrimlari yog'och to'sinlar bilan berkitilgan. Qator qabrlarda skelet qoldiqlari saqlanmagan, ayrimlarida suyaklar tartibsiz holatda topilgan. Bu holat qabrlarning qadimda talangani yoki keyinchalik bezovta qilinganidan dalolat beradi. Ayrim qabrlar ichidan mato qoldiqlari, teri izlari, yog'och yoki novda parchalari, o'smir va bolalarga oid suyak bo'laklari qayd etilgan. Bu ma'lumotlar maqbarada dafn marosimlari bir necha marotaba, ehtimol, bir sulola yoki oila doirasida amalga oshirilganini anglatadi.

Maqbaraning ichki va tashqi bezagi temuriylar davri san'ati yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar bino ichki va tashqi devorlarining bir vaqtli marmar panellar, koshin, mozaika, zarhal va bo'rtma naqshlar bilan nihoyatda boy bezatilganini qayd etadilar. Gumbaz osti tayanch qismining bezakli qoplamasi binoning quy'i qismlariga nisbatan boy badiiy ranglar bilan to'yingan bo'lib, bu yerda ko'k va oq kvadratlar g'ishtli mozaikasi, terrakota fonidagi geometrik naqshlar, yulduzsimon kompozitsiyalar, yozuvli dumaloq frizlar, stalaktit karnizlar va rozetkasimon bezaklar ishlatilgan. Pastdan yuqoriga qarab kuchayib boruvchi rang-baranglik yuksak badiiy ta'sir uyg'otuvchi moviy gumbaz bilan yakunlangan.

Markaziy zal va unga tutash me'moriy qismlar bezagida kundal texnikasi va murakkab rang-tasvir yechimlari muhim o'rin egallagan. Oqartirilgan gulganch sath ustiga yelim aralashmasi bilan ishlangan qizil kesak relief, uning ustiga oltin suvi yuritilgan. Oqartirilgan fon och kulrang-ko'k rang bilan qoplanib, undan keyin quyuk ko'k va xira ko'k tuslar bilan bezak kompozitsiyalari hosil qilingan. Oltin naqshlar umumiy bezak tizimida nisbatan kam joyni egallasa-da,

ular asosiy kompozitsion bog'lovchi unsur bo'lib xizmat qilgan.

Binoning konstruktiv yechimlari ham diqqatga sazovor. V.Yatkin ma'lumotiga ko'ra, maqbara gumbazining balandligi yerdan 26,7 metr, ikkinchi qavat tomidan esa 7,8 metr bo'lgan. Gumbaz barabanining diametri 8,75 metrni tashkil etgan. Devorlari boshqa temuriylar davri binolaridan farqli ravishda ikki g'isht qalinlikda ishlangan. Ichki qismlardagi konstruktiv tizim zilzilabardoshlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, to'rt qator kamarlar orqali bog'langan.

Vaqf hujjatlariga ko'ra, maqbaraga o'z davrida vaqf sifatida Samarqanddan Shahrisabzga ketish yo'lida joylashgan Malik saroyi qishlog'i yerlarining yarmi ajratilgan. Ushbu daromad maqbaradagi xizmatlarni ta'minlashga sarflangan. Vaqf hujjatida qayd etilishicha, ikkinchi qavatda maqbarada dafn etilganlar uchun Qur'on tilovat qiluvchi qori - hujjatda "hofiz" deb berilgan shaxs, nazoratchi va xizmatchi yashagan. Ularning har biriga maosh va g'alla ajratilgan: qori yiliga 364 fulus va 192 pud g'alla, nazoratchi 404 fulus va 160 pud g'alla, xizmatchi esa 204 fulus va 192 pud g'alla bilan ta'minlangan.

Yodgorlik taqdiri keyingi asrlarda murakkablashgan. Uning xarobaga aylinishi XVI asrdan boshlangan. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, ya'ni hokimiyatning temuriylardan shayboniyarga o'tishi natijasida maqbaraga bo'lgan e'tibor pasaygan. XVII asrda yodgorlikdagi ayrim qabr toshlari yaqin atrofdagi Abdu Darun qabristoniga ko'chirilib, eski yozuvlari o'chirilib, o'rniga yangilar yozilgan. Rossiya imperiyasiga qaramlik yillarida kolleksiya to'plovchilar qabrlarni ochishga uringanlari qayd etiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida obidaning ahvoli yanada og'irlashadi. Rossiya imperatori arxeologiya komissiyasi arxivi nusxalaridan ma'lum bo'lishicha, Samarqandga kelgan xorijliklar maqbaraning koshinlarini temuriylar poxtaxidan esdalik sifatida qo'porib olib ketgan. Chor ma'muriyati esa yodgorlik taqdiriga yetarli e'tibor bermagan. 1897-yildagi yer silkinishi vaqtida maqbara kuchli zarar ko'rib, to'rtta hujras qulab tushgan. 1902-yilda esa yana ikkita xona gumbazi qulagan va natijada asosan qurilish fasadi saqlanib qolgan, qolgan qismi esa g'isht va sement uyumidan iborat tepalikka aylangan.

Maqbara ilmiy jihatdan ko'plab olimlar e'tiborini tortgan. Uning dastlabki suratlari va tavsiflari nemis sharqshunosi va san'atshunosi Fridrix Sarr nomi bilan bog'liq bo'lib, u Sulton Xovand Beka maqbarasiga oid fotosuratlarini 1899-yilda Berlinda, 1903-yilda Parijda namoyish etgan. Keyinroq Ernst Kon-Viner ham o'zining 1930-yilda Berlinda chop etilgan "Turon: O'rta Osiyoda islom me'morchiligi" asarida maqbaraning bir necha suratini e'lon qilgan.

2007-yilda Germaniyaning Potsdam amaliy san'at maktabi va Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti talabalari doktor Shteffen Laue rahbarligida maqbarada tadqiqot olib borib, devoriy suratlar va sopol qoplamalardan namunalar oldi, laboratoriya sharoitida ranglarning mikrokimyoviy tahlilini amalga oshirdi. Shu ma'lumotlarga tayangan holda bezaklarning dastlabki holatini tiklashga qaratilgan restavratsion tajribalar ham o'tkazildi. 2009-yilda esa Veymar universiteti professori Yens Yor-

dan rahbarligida Drezden universiteti talabalari uchun Samarqandda amaliy mashg'ulot tashkil etilib, maqbarani restavratsiya qilish va undan foydalanish muammolari o'rganildi. Natijada bu yerda kichik muzey majmuasi tashkil etish, muhandislik kommunikatsiyalarini to'g'ri joylashtirish, transport shovqinini kamaytirish, dam olish muhiti yaratish hamda yodgorlikni 3D modellar va doimiy ko'rgazmalar bilan boyitish yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Bugungi kunda maqbaraning tom qismi yopilishi bilan qisman konservatsiya qilingan. Yodgorlikda sayyohlar uchun yo'naltiruvchi axborot, ekspozitsion talqin, xizmat infratuzilmasi va tushuntiruvchi materiallar ham yaratilgan. Chunki Sulton Xovand Beka maqbarasi me'moriy yechim-

Avvalo bemorda korona-angiografik amaliyot o'tkazildi va yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi lozimligi aniqlandi, - deydi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali shifokori Jahongir G'ulomov. - Operatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirildi, bugun bemorning ahvoli ancha yaxshi.

Ishtixon tumanida yashovchi Manzura Sirojiddinovaning farzandi, Jomboydan Gulchehra Isoqulovaning nabirasi esa bir necha yillik qiyinchiliklarni ortda qoldirib, Ramazon oyida yurak operatsiyasini o'tkazishdi.

Qarorga asosan hududiy hokimliklar hamda xalq deputatlari shahar/tuman Kengashlari, ijtimoiy himoya milliy agentligi va sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan yuqori texnologiyali operatsiyaga hamda tezkor davolanishga muhtoj bo'lgan 767 nafar fuqarolar

ro'yxati shakllantirildi, - deydi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i

o'rinbosari Jamshid Jijyanov. - Ushbu operatsiyalar fevral oyida boshlanib, mart va aprel oylarida davom etishi mo'ljallan. Shakllantirilgan ro'yxatga ko'ra 38 nafar bemor suyak-mushak tizimi kasalliklari, 10 nafari qon aylanish tizimi, 34 nafari tug'ma anomaliyalari, 4 nafari xavfli onkologik 5 nafari siydik ajratish tizimi, 3 nafari endokrinologik kasalliklar bilan qayd etilgan.

Shu paytgacha 132 nafar bemor viloyatdagi muassasalarga yotqizilib, davolanish amaliyotlari boshlangan. 56 nafar bemor davolanib chiqdi. Bemorlarning davolanishi uchun ketadigan barcha sarf-xarajatlar "Vaqf" xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan qoplanmoqda.

Ayni kunlarda viloyat bo'yicha ikkinchi bosqich uchun ijtimoiy himoya milliy reestriga kiritilgan davolanishga muhtoj 655 nafar fuqaro ro'yxati joylardagi tibbiyot va ijtimoiy xodimlar bilan birga shakllantirilmoqda.

Gulruh MO'MINOVA.

Samarqand shahrining Xo'ja Abdu Darun mahallasida yashovchi Komiljon G'afurov taqdirning achchiq zarbalari ta'sirida yurak xastaligini orttirdi. Ammo oilaviy sharoiti to'g'ri kelmagani uchun ancha paytdan beri davolanishga imkoni bo'lmadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga asosan "Ramazon - mehr-muruvvat, ahillik va shukronalik oyi" degan e'g'u o'ya asosida kam ta'minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni har tomonlana qo'llab-quvvatlash belgilangan edi. Aynan shu qaror sabab

K.G'afurov hayotida ham Ramazon oyida o'zgarish sodir bo'ldi. Mahalla ijtimoiy xodimining tezkorlik bilan salomatligini tiklash uchun yordam zarur bo'lganlar ro'yxatiga kiritilgan tufayli uning yuragidagi nuqsonni bartaraf etish uchun harakat boshlandi.

Avvalo bemorda korona-angiografik amaliyot o'tkazildi va yuqori texnologik jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi lozimligi aniqlandi, - deydi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali shifokori Jahongir G'ulomov. - Operatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirildi, bugun bemorning ahvoli ancha yaxshi.



Ramazon o'tdi

SALOMATLIK XAYRIYASI DAVOM ETMOQDA



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 788 nusxada chop etildi. Buyurtma 127. Hajmi 2 bosma tablo, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda